

## PAXTA VA IKKILAMCHI TOLALAR ARALASHMASIDAN OLINGAN IPLARNING BIKRLIK KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHI

**Atanafasov Muhiddin Rakhmonovich**

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

[matanafasov@mail.ru](mailto:matanafasov@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada tolalar aralashmasidan olingan to'rt xil variantdagi iplarga pishitish mashinasida 400, 500 va 600 buram berish orqali olingan iplarning bikrlik ko'rsatkichlari aniqlangan.*

**Kalit so'zlar:** ikkilamchi xomashyo, ipning bikrligi, bikrlik koeffitsienti, paxta tolasi buramdonligi

## CHANGE IN THE STIFFNESS INDEX OF THREADS OBTAINED FROM COTTON AND RECYCLED FIBERS

### ABSTRACT

*The following article presents the results of determining the stiffness index of four variants of mixed yarn obtained on a twister with 400, 500 and 600 twists.*

**Key words:** secondary raw materials, yarn rigidity, hardness coefficient, twist of cotton fiber

### KIRISH

Jahonda tikuvchilik sanoatida turli xil buyumlar ishlab chiqarishda katta miqdordagi qiyqimlar hosil bo'ladi. To'qimachilik ikkilamchi xomashyosi kengayib, ularni qayta ishlash va bozori chaqqon, innovatsion tayyor mahsulotlar yaratish muammosini echish taqozo etiladi. Shunday masalalardan biri tikuvchilik qiyqimlarini qayta ishlab, ulardan tola tiklab, bozori chaqqon tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi. So'nggi paytlarda tikuvchilik qiyqimlari va chiqindilardan tola tiklash hamda ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish masalalariga katta e'tibor berilmoqda[1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tolali chiqindilarni qayta ishlashga juda ko‘p tadqiqotlar bag‘ishlangan. Shuning uchun so‘nggi paytlarda tikuvchilik qiyqimlari va chiqindilardan tola tiklash hamda ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish masalalariga katta e’tibor berilmoqda[1]. Mazkur tadqiqotlarda qiyqim hamda to‘qimachilik chiqindilaridan tola tiklab, mahsulot ishlab chiqarish masalalari ko‘rilgan. Mazkur tadqiqotlarda chiqindilardan tola tiklash (regeniratsiyalash) texnologiyasi tahlil etilib, resurstejamkor texnika va texnologiya ishda o‘zlashtirilgan bo‘lsa, to‘qimachilik chiqindilaridan tiklangan tolalarni lavsan tolesi bilan aralashtirib, trikotaj matosi olish [2] ishda batafsil ko‘rib chiqilgan va tegishli tavsiyalar berilgan. Jun tolasini qayta ishlash sanoatida ajraladigan chiqindilarni regeniratsiyalab, olingan tolalardan foydalanish texnologiyasining samaradorligini oshirish [3] ishda o‘rganilgan. Chigal ip va laxtakdan tiklangan tolalar olish texnologiyasi samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari asosan keskichlar bo‘yicha taklif etilgan [4]. Mazkur ishlar yuqori saviyada bajarilgan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bo‘lib, texnologiya tahlili asosida yangi konstruksiyalar yaratilgan [5].

Iplarning asosiy xossalardan biri uning bikrligidir. Iplarning bikrlik ko‘rsatkichi oshgan sari olinadigan buyumning shakl saqlash xossalari yaxshi bo‘ladi. Iplarning bikrlik koeffitsientini oshirish avvalambor ularning eshilishiga bog‘lik bo‘ladi[6].

Olinadigan iplarning bikrliji birinchidan iplarga qancha buram berilganiga, ikkichidan tola tarkibiga bog‘liq. Iplarga qanchalik buram beriladigan bo‘lsa, uning bikrlik ko‘rsatkichi shunchalik oshadi[7].



## NATIJALAR

Buramlar soni turlicha bo‘lgan iplarning bikrlik ko‘rsatkichlarini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi. Uning uchun, buralishlar soni 400, 500 va 600 br/m gacha bo‘lgan iplarning bikrlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun tadqiqot ishlari olib borildi va sinov natijalari 3.5-jadvalda keltirilgan.

**3.5-jadval*****Iplarning bikrlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi***

Namunalar	Ip tarkibidagi paxta tolasi va ikkilamchi material resurslar aralashmasi, %			
	25% ikkilamchi tola+75% paxta tolacidan olingan ip	20% ikkilamchi tola +80% paxta tolasidan olingan ip	30% ikkilamchi tola +70% paxta tolasidan olingan ip	15% ikkilamchi tola +85% paxta tolasidan olingan ip
Ipning buramlar soni, 400 br/m				
1.	0,128	0,145	0,117	0,156
Ipning buramlar soni, 500 br/m				
2.	0,137	0,167	0,125	0,174
Ipning buramlar soni, 600 br/m				
3.	0,141	0,169	0,128	0,176

***Iplarning bikrlik ko‘rsatkichlariga ikkilamchi tolalar tarkibiga qarab o‘zgarishi quyidagi 3.8-rasmda keltirilgan.***



***3.8-rasm. Paxta va ikkilamchi tolalar aralashmasidan olingan iplarning bikrlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi.***

**MUHOKAMA**

Eshilish pishitilish jadalligi sifatida faqat bir xil yo‘g‘onlikdagi va zinchlikdagi iplar uchun qo‘llaniladi. Bir xil eshilgan iplar diametri qanchalik katta bo‘lsa, eshilish burchagi shunchalik katta bo‘ladi.

Iplarning eshilishi ularning xossalariiga katta ta'sir etadi. Eshilish darajasi ortib borishi bilan ipdagi tolalar zichlashib ularning o'rtacha zichlanganligi ortadi va ipning diametri kichiklashib boradi.

Tolalarning zichlanishi eshilishning boshlang'ich davrida tez o'zgaradi. Pishitilish jadalligi ortishiga mos ravishda ipning o'rtacha zichligini o'sishi kamayib boradi, diametri kamayadi. Eshilishning ortishi ipning mustahkamligiga dastlabki bosqichda ijobiy ta'sir qiladi, ma'lum miqdordan keyin kamaya boshlaydi.

Ipning maksimal mustahkamlikka ega bo'lgan eshilish qiymati uning kritik eshilishi deyiladi. Kritik eshilishdan ortiqcha hollarda ip tashkil etuvchi tolalarning zo'riqishi ortib parchalana boshlaydi. Kompleks iplarda pishitilishning ijobiy ta'siri yigirilgan iplarnikidan ancha past. Iplarning eshilish darajasi oshishi bilan ularning ko'p davrli cho'zilish deformatsiyasiga chidamligi oshadi.

Iplarning eshilishdagi qisqarishi yigirish va pishitish mashinalarining unumdarligi, hisobiy pishitish koeffitsienti, nominal chiziqli zichligi va boshqa ko'rsatkichlarini hisoblashda e'tiborga olinadi. Undan tashqari, ipga qanchalik ko'p buram beradigan bo'lsak, boshlanishida pishiqligi oshib, keyinchalik uning kamayishiga olib keladi, natijadakritik eshilganlik hisoblanadi.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarkibida ikkilamchi tolalar miqdorining kamayishi va buralishlar sonining ortishi bilan olingan iplarning bikrlik koeffitsienti 8,8% dan 19,8% gacha oshdi, olingan ipning tarkibida 15% ikkilamchi tola+85% paxta tolasidan olingan iplarning bikrligi boshqa tarkibli iplarga nisbatan oshganligi aniqlandi.

Undan tashqari, ip tarkibidan ikkilamchi tolalar miqdori qanchalik kam ishlatsa, uning bikrlik koeffitsienti kamayar ekan, iplarga qanchalik ko'p buram beradigan bo'lsak, ularning bikrlik koeffitsienti shunchalik oshib borishi kuzatildi.

**REFERENCES**

1. Фролова И. В. *Разработка и промышленное освоение ресурсосберегающей технологии и техники в производстве текстильных материалов на основе регенерированных волокон.* Дис. докт. техн. наук., М. 2000 г.
2. Чеберяк И. А. *Разработка технологии регенерации волокон хлопка из текстильных отходов и их использование совместно с профицированным лавсаном в трикотажных полотнах.* Дис. канд. техн. наук. Иванова, 2010.
3. Швидкий С. П. *Повышение эффективности технологии регенерации шерстяных отходов путем применения влажно тепловой обработки,* кандидатская диссертация, Кострома 2013 г.
4. Горкова А.Г. *Повышение эффективности технологии получения регенерированных волокон из путанки и лоскута.* Дис. канд. техн. наук. Иваново 2009 г.
5. M.SH.Xoliyarov. *Ikkilamchi xom ashyodan ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish. Texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi.* Toshkent, 2002, 81-82 b.
6. D.A.Khalmatov M.R.Atanafasov, T.A.Ochilov, R.X.Norboev, M.A.Mansurova “Changes in the Uneven Indexes of Sliver and Threads by Different Technological Processes”, *International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE), Volume 9 Issue 1 2020.*
7. J.R.Mukhtarov, M.R.Atanafasov, Z.F.Valieva, M.B.Djumaniyazov, E.T.Laysheva “The effect of the amount of waste of yarn on the physical and mechanical indicators”, *Eur. Chem. Bull. 2022,11(6), 15 - 19 15.*